

**“Ajdodlarimiz, olim va ulamolarining
betakror pedagogik va psixologik ilmiy-
ma'naviy merosi “uchinchi Renessans”
davrining poydevori”**

**mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy onlayn
(Zoom platformasida) konferentsiya materiallari
to'plami**



Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi 2022 yil 7-dekabrda onlayn tarzda “Ajdodlarimiz, olim va ulamolarining betakror pedagogik va psixologik ilmiy-ma’naviy merosi “uchinchi Renessans” davrining poydevori” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasiga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazilish bo‘yicha:

TASHKILIY QO‘MITA HAY‘ATI		
1.	Safarov A.K.	Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi direktori
2.	Xurramov B.S.	Xalq ta’limi vazirligi A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti “Raqamli ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish” ilmiy tadqiqot bo‘limi katta ilmiy xodimi
3.	Qosimov U.A	“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari “ kafedrasini mudiri, ps.f.n., dotsent, ilmiy-metodik kengash kotibi(mas’ul-moderator)
TAHRIR HAY‘ATI		
1.	Astanov Sh.R.	Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi direktor o‘rinbosari
2.	Qosimov U.A	“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari “ kafedrasini mudiri, ps.f.n., dotsent
3.	Astanov R.V.	“ Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi” kafedrasini mudiri.
4.	Axmedov B.Ya	“Tillarni o‘qitish metodikasi” kafedrasini mudiri, p.f.n., dotsent
5.	Narzиеva M.S.	“Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasini mudiri
6.	Xaydarov Y.X.	“Ijtimoiy iqtisodiy fanlarni o‘qitish metodikasi “kafedrasini mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent
7.	Olimov T.X.	“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari “ kafedrasini, dotsenti(Ph.D.)
8.	Gadoeva M.M.	“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari “ kafedrasini, katta o‘qituvchisi
9.	Baqoeva M.I.	“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari “ kafedrasini, katta o‘qituvchisi
10.	Kozimova D	“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari “ kafedrasini, o‘qituvchisi
11.	Ne‘matov A.Sh	O‘quv jarayonini tashkil etish bo‘lim boshlig‘i

Muharrir(mas’ul, moderator): U.A.Qosimov – “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari “ kafedrasini mudiri, ps.f.n., dotsent

To‘plamga kiritilgan maqolalar matni mazmuniga mualliflar mas’ul va matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardirlar.

MUSINOVA NOZIRA MIRZADJANOVNA
Buxoro davlat universiteti(BDU)

SOG'LOM OILA- SOG'LOM HAYOT

ANNOTASIYA: Oila jamiyatning boshlang'ich bo'g'ini bo'lib, unda yangi inson vujudga keladi, bu kichik ijtimoiy guruh bola uchun dastlabki hayot maktabidir. Ota – onalar bolaning birinchi o'qituvchisi va tarbiyachisidirlar. O'z navbatida jamiyat ma'naviy qiyofasi oilalarda tashkil etilayotgan ijtimoiy tarbiyaning natijasi, samarasiga bog'liqdir. Shu bois asrlar davomida har qanday geografik makon va ijtimoiy zamonda ham yangi oilalarning shakllanishi, oilaviy hayotning yo'lga qo'yilishi, farzandlar tarbiyasini tashkil etish hamda sulola an'alarini davom ettirish masalalariga alohida e'tibor berib kelingan.

ABSTRACT: The family is the initial link of society, where a new person is born, this small social group is the first school of life for a child. Parents are a child's first teacher and educator. In turn, the moral image of the society depends on the result and effectiveness of the social education organized in families. Therefore, for centuries, in any geographical space and social era, special attention has been paid to the issues of forming new families, establishing family life, organizing children's education, and continuing dynastic traditions.

Yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik kabi xislatlar bilan birga diniy va milliy bagrikenglik, ajdodlarimiz merosida mexr, yuksak ma'naviyat egasi bulish xamda boshka millatlarga nisbatan xurmat bilan karaydigan, tinchlik va barkarorlikni asrab-avaylab, qadriga yetadigan, xar xil taxdidlarga karshi o'z mustaqil fikriga ega , insoniy qadr-qimmatni e'zozlaydigan qilib tarbiyalashda o'zaro chambarchas bog'lik uch omil - oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi muhim ahamiyatga egadir. Ular orasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish jamiyatning birinchi kichik bo'g'ini oilalarda sog'lom oila mug'itini oqilona shakllantirish, ularda yuz berayotgan turli mojaro, nizo, ajrimlar va bolalar tarbiyasidagi illatlarning oldini olishga, bugungi kunning yetuk yoshlarini tarbiyalashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Oila jamiyatning boshlang'ich bo'g'ini bo'lib, unda yangi inson vujudga keladi, bu kichik ijtimoiy guruh bola uchun dastlabki hayot maktabidir. Ota – onalar bolaning birinchi o'qituvchisi va tarbiyachisidirlar.

Oila ijtimoiy jamiyatning kichik bo'g'ini sifatida muayyan xalq, millat yoki elatning milliy xususiyatlari, shuningdek, mavjud tuzum mazmunini o'zida namoyon etadi. Oilalarning mustahkam bo'lishi, ularning totuvlik va farovonlikka

erishuvi u mansub bo'lgan ijtimoiy tuzumning iqtisodiy, ma'naviy rivoji, jamiyatda amal qilinayotgan ma'naviy-axloqiy me'yorlar, olib borilayotgan davlat siyosat mazmuni bilan belgilanadi. O'z navbatida jamiyat ma'naviy qiyofasi oilalarda tashkil etilayotgan ijtimoiy tarbiyaning natijasi, samarasiga bog'liqdir. Shu bois asrlar davomida har qanday geografik makon va ijtimoiy zamonda ham yangi oilalarning shakllanishi, oilaviy hayotning yo'lga qo'yilishi, farzandlar tarbiyasini tashkil etish hamda sulola an'alarini davom ettirish masalalariga alohida e'tibor berib kelingan.

Darhaqiqat, oila muhitida shaxsning har jihatdan barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun zarur bo'lgan omillar, chunonchi, oila xo'jaligini boshqarish jarayonida oila a'zolari o'rtasida yuzaga keluvchi huquqiy, iqtisodiy, psixologik, ekologik, estetik va hokazo mazmundagi oilaviy munosabat, muomala aloqa aralashuvi uning ijtimoiylashuvi, ya'ni, ijtimoiy munosabatlarni yuritish jarayonida erkin, mustaqil harakat qilish layoqatini, qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi omillar mavjuddir. Shu bois O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi sharoitida, ijtimoiy jamiyatda yangilanish, keskin o'zgarishlar yuz berayotgan, bozor iqtisodiyoti munosabatlari, shuningdek, ijtimoiy raqobat qaror topayotgan o'tish davrida sog'lom oilalarni shakllantirish har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda.

Oilada shaxsni axloqiy shakllantirish bolaning tug'ilishidan boshlanadi. U ko'pgina omillar ta'sirida tarkib topadi. Bu omillar oilaviy munosabatlar xarakteri, ota – onalarning namunasi, ulardagi umumta'lim darajasi, umummadaniy saviyasi hamda ularning pedagogik madaniyati va nihoyat oilaviy va undan tashkaridagi hayotning tashkil etilishidagi ijtimoiy psixologik xodisalardan iborat. Bu omillar oilada bolani axloqiy tarbiyalashning mazmunini tashkil etadi va ular bir qator pedagogik va psixologik hususiyatlarni o'z ichiga oladi. Bular quyidagilarda uz ifodasini topishi mumkin:

- Ayrim oilalarda bolalarning tarbiyasi faqat onalarning zimmasida, ota esa bu ishdan o'zlarini chetga oladilar. Go'yo farzandlarini bog'cha, maktab tarbiyalab berishlari shart.
- Ota – onalar farzandlariga birdek munosabatda bo'lishlari, bir xil mehribon va g'amxo'r, talabchan va qattiqqo'l bo'lsalar bolalar hayoti butun va mukammal bo'ladi. Biri talab qilganda, ikkinchisi yonini olsa, tarbiya buziladi.
- Ko'pgina ota – onalar bolalarini tarbiyalash borasida o'z vazifalari va burchlarini to'la xis qilmaydilar. Boshqacharoq aytganda ularda pedagogik va psixologik tayyorgarlik yetishmaydi. Zotan, oilaviy tarbiya,

avvalo, ota – onalarning o‘zlarini – o‘zlari tarbiyalash demakdir. Chunki bola ayni paytda ta’sir ob’ekti va sub’ektidir.

Oila hayotini to‘g‘ri tashkil etish, oilada sog‘lom axloqiy muhitni yaratish lozim. Chunki, xar bir xodisa, vaziyat, narsa bolaga ta’sir qiladi. Ana shu ta’sir natijasida salbiy yoki ijobiy turlicha xulq – atvor xususiyatlari paydo bo‘ladi. Ota – onalarning xatti – harakatini bolalar uzluksiz ixtiyoriy, ixtiyorsiz, bevosita va bilvosita kuzatib turadi.

Har bir ota – ona farzandini barkamol inson bo‘lishini istaydi. Farzandini ana shunday inson bo‘lishidan nafaqat ularning o‘zi, balki jamiyat ham mafaatdordir. Ota – onaning fuqarolik burchi ham shuni taqazo etadi.

Ota – ona shaxsining o‘zi bola tarbiyasida muhim rol o‘ynashi, shubxasizdir. Ularning oqilona o‘g‘tlari, pand – nasihatlarining hyech biri, ularning shaxsiy namunasi o‘rnini bosa olmaydi. Bolalarning axloqiy fazilatlarini tarkib topishida, oiladagi o‘zaro ahillik, halollik va rostgo‘ylik, o‘zaro ishonchning mavjudligi, umuman sog‘lom ahloqiy muhit, ijobiy psixologik iklim muhim amamiyatga ega.

Oilada bolalarni sevish, ularni shahsiyatini hurmat qilish va hyech qachon ularni izzat – nafsiga tegmaslik zarur. Nourin jazolash usuli bola nafratini kuchaytiradi. Har qanday xaddan tashkari g‘amho‘rlik yoki talabchanlik xam salbiy samara beradi.

Bola tarbiyasida ota – onaning ishxonasidagi, mahalla va qo‘ni – qo‘shnisi oldidagi obro‘yi ham katta rol o‘ynaydi va bolalarida ularga nisbatan faxrlanish hissini uyg‘otadi. Ular shu ruhda tarbiyalanadilar.

Oiladagi tarbiyani yuqoridagi xususiyatlarini xisobga olish, bolani axloqiy jixatdan tarbiyalashda, milliy axloqiy qadriyatlardan foydalanishning mohiyatiga, uning o‘ziga xosligi va ahamiyatini tahlil qilishga yordam beradi.

“Nima eksang- shuni olasan” kabi xalq iborasi oddiyligiga qaramasdan o‘z ichiga ilmiy dalillarni olgan holda inson hayoti davomida oila sharoitida, o‘zlariga tanish bo‘lgan kishilar bilan o‘zaro munosabatlarida egallagan xulq namunalari o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

“Bola-ota-ona” munosabati tizimidagi hayotning mazmun-mohiyati kattalarning maqsadga qaratilgan va savodli o‘zaro hamkorlikda jarayonlarni tashkil etishiga, ya’ni ularning psixologik va pedagogik jihatidan mutanosibligiga bog‘liq. Bu mavzuda maqtovg‘a sazovor ishlarni hamma oilaga ham taalluqli deb bo‘lmaydi. Shuning uchun ota-onalarga bolalar ta’lim- tarbiyasiga oid masalalarda yordam berish muammosi dolzarb bo‘lib turibdi. Bunday ishlarning samaradorligini ta’minlovchi omillardan biri bu oila va ta’lim tarbiya muassaasasining o‘zaro

hamkorlikda olib boriladigan ishlaridir. Birinchi navbatda diqqatni pedagog va ota-onaning o'zaro muloqotiga asoslangan holda oilaning shaxsiy ehtiyoji va qiziqishlarining ustunligini tan olishlikka qaratish lozim. Ota-onalarga qo'yiladigan talablarning yo'nalishini o'zgartirish, ya'ni: ota-onalarning pedagogik tajribasini va qiziqishlarini rad etishdan-hamkorlikka va sherikchilikka indamaslikdan-maqсад, vazifalarni qo'yishda, xulosalar chiqarish va uni qo'llashga o'rgatishdan iborat.

Ota – onalarning kamol topib borayotgan bolaga ko'rsatadigan ta'sir kuchi juda katta. Ularning bolaga ta'sir etishiing asosi ularning bolaga nisbatan beg'araz muhabbati, uning vaqtida talabchanlik bilan qo'shib olib boriladigan g'amho'rlicidir. Mehr-muhabbat har qanday yahshilik, mehribonlik va yorqinlikning ijodkoridir.

Bolani yoshligidan boshlab oilaviy odob – ahloq qoidalariga odatlantirish, yahshi xulq – atvorli bo'lishga o'rgatish ota – ona uchun ham qarz, ham farzdir. Ota – onaning jamiyatda tutgan o'rnini, nufuzi farzand tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Bu narsa mansab bilan belgilanmaydi. Eng yahshi obro' va e'tibor halol mehnatdir. Halol mehnat bilan jamiyatda orttirilgan obro' oilada farzandlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. Farzand ham ota – onalaridek bo'lishga intiladi.

O'zbek oilalarida bolalarning jamiyatning munosib farzandlari etib tarbiyalash bo'yicha ijobiy tajribalar to'plangan. Lekin kichkintoylar tarbiyasida jiddiy xatolarga yo'l qo'yadigan oilalar ham uchrab turadi. Bu esa bolaning kelgusidagi kamolatiga salbiy ta'sir etadi va ularni qayta tarbiyalashdek murakkab muammolarni keltirib chiqaradi.

Sog'lom oilalarni shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri bu yoshlar, xususan, qizlarni oila qurish, mustaqil oilaviy hayotni tashkil etish, oilada sog'lom ruhiy muhitni qaror toptirish, farzandlar tarbiyasini samarali tashkil etish jarayoniga muvaffaqiyatli tayyorlashdir. Mazkur jarayonning mhiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, yoshlarda nikoh hamda oilaviy hayot, shuningdek, ikki jins o'rtasidagi munosabatlar mohiyati borasida to'g'ri tushunchalar hosil bo'ladi;

ikkinchidan, ularni nikoh hamda oilaviy hayotni tashkil etish jarayoniga ruhiy jihatdan tayyorlaydi;

uchinchidan, yoshlarda nikohga kirishish hamda oilaviy hayotni tashkil etish (oila a'zolari o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish, oila a'zolari (qaynота, qaynona, qaynsingil va qaynog'alar) bilan muloqotni yo'lga qo'yish, oila xo'jaligini boshqarish, pazandalik hamda bichish - tikish ishlarini yuritish, biologik qovushish, farzandlar tarbiyasini olib borish va hokazo jarayonlarni tashkil etish borasida amaliy ko'nikma hamda malakalarni shakllantiradi.

Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash murakkab pedagogik jarayon sanalib, mazkur jarayonning samarali tashkil etilishi bu boradagi muayyan kamchilik va muammolarning bartaraf etilishi bilan belgilanadi. Ayni vaqtda esa oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasida bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iboratdir:

1. Ota-onalarning oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining mohiyati xususida to‘la ma’lumotga ega emasliklari.

Milliy etnopsixologik xususiyat (Ota-onalarning o‘z farzandlari bilan ma’lum masalalarda ochiq oydin muloqotda bo‘la olmasliklari, ichki kechinmalarini atrofdagilarga oshkor qilavermaslik lozimligi, oilani moddiy jihatdan ta’minlash erkak kishining burchlaridan biri ekanligi, farzandlar tarbiyasi uchun mas’ullik keksa avlod zimmasiga yuklangan asosiy vazifalardan biri ekanligi borasidagi qarashlar, shuningdek, kelin va kuyov munosabatlarining mazmunini ularga anglatish vazifasini qizning yanga (kelin oyi) lari, yigitning oshnalari zimmasiga yuklash an’analarning mavjudligi ota-onalarda oila sharoitida yoshlar, chunonchi, qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining mohiyatini to‘la tushunmasliklariga sabab bo‘lmoqda.

2. Ota-onalar tomonidan yoshlar, shu jumladan, qizlarni oilada mustaqil jilaviy hayotga tayyorlash borasidagi nazariy va amaliy bilimlarni o‘rganish imkonini beruvchi manbalarning yetarli darajada mavjud emasligi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak sog‘lom oilani shakllantirishda er, xotinlik, qaynona. kelinlik, ota ona va bolalar munosabatlarini yaxshilash. barcha turdagi nizolarni oldini olish, oilada qizlarni mustaqil hayotga to‘g‘ri va oqilona tayyorlash oila va jamoatchilik o‘rtasidagi ijodiy hamkorlikni qaror toptirish va ushbu hamkorlik asosida faoliyatni tashkil etish oila sog‘lom oila muammuammosining ijobiy yechimga ega bo‘lishini kafolatlaydi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahimova F.Yu. Mahallada qizlarni sog‘lom turmush tarzi asosida oilaga tayyorlashning pedagogik asoslari: Ped. fan. nom. ... dis. avtoreferati: 13.00.01. – T.: O‘zPFITI, 2007. – 23 b.
2. Akramova F.A., Abdullayeva R.M. “Sharq mutafakkirlarining oila xususidagi qarashlari”, Risola. T., Respublika “Oila” ilmiy markazi. 2002, 28 b.
3. Akramova F.A., Abdullayeva R.M. “Oilaviy hayotga doir tavsiyalar”. Risola. T., Respublika “Oila” ilmiy markazi. 2002, 40 b
4. Arapbayeva D.K. Sharq olimlarining oila va ayollar xususida qarashlari. O‘zbekistonda amaliy psixologiyaning bugungi holati va rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 1-tom. 27 sentyabr 2008. Toshkent.: 2008. 212 b. B.36-38.

MUSINOVA NOZIRA MIRZADJANOVNA
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

OILADA BOLA SHAXSIDA MILLIY QADRIYATLAR SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Maqolada oilada bola shaxsida milliy qadriyatlar shakllanishining ijtimoiy psixologik mexanizmlari, psixologik iqlimning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari majmui, ustun va barqaror psixologik kayfiyati, munosabatlarning tabiati kabi omillar ta'sirida shakllanishiga asoslangan metodikalardan foydalanishga oid tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: bola, oila, shaxs, ijtimoiylashuv, oilaviy hayot, xulq-atvor, sharqona odob, qadriyat, psixologik iqlim, ishonitirish, taqlid, ziddiyat

Har bir yosh davrning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda milliy va etnik qadriyatlar asosida, ayniqsa oila bag'rida tarbiyaviy ta'sir o'tkazish va ta'lim berish insonda o'z vaqtida o'zini o'zi anglashni samarali kechishini ta'minlaydi. Bolaga o'zini anglash tuyg'usi qancha erta uyg'onsa shaxsiy nuqtai nazar, o'z huquqini his etish o'zining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini baholash shunchalik tez paydo bo'ladi. Xuddi shu asnoda xulqiy illatlar tarkib topishiga ruhiy to'siq vujudga keladi. Bolalarda qadriyatlar, e'tiqod, dunyoqarash, ideal, muomala, muloqot, mustaqil xulq-atvorni samarali shakllantirish ko'proq yuqoridagi omil va sabablarga bog'liqdir. Bu o'z navbatida hozirgi globallashuv sharoitida eng dolzarb muammolar sarasiga kiradi. Boladagi tashabbuskorlik, qiyinchilik va to'siqlarni yengishga intilishlarini aniqlash va ularga yosh psixologiyasi xususiyatlariga bog'liq holda, ulardan kelib chiqqan holda ruhiy turtki va samarali psixologik iqlim, ta'lim-tarbiya muhitini yaratish orqali samarali, oqilona psixologik muhofazasini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hatto bu unda ishchanlik qobiliyatining saqlanishi, istiqbol rejasi va maqsadi bilan yashashi ham yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda muomala, muloqotda bo'lish mevasidir.

Aytish joizki oilaning ijobiy psixologik iqlimi ta'siri natijasi oila a'zosi (bola, o'quvchi)ning o'zini o'zi his qilishida ifodalanadi. Bu o'z navbatida o'zining sa'iharakat va faoliyatidan unga nisbatan vujudga kelgan muomala va munosabatdan himoyalanganligining nechog'lik kafolatlanganligidan va undan qoniqishi orqali ichki va tashqi psixik muvozanatga erishishida ifodalanadi. Bular uning emotsional xissiy qoniqishini belgilaydi.

Ma'lumki, ijobiy yuqori darajadagi psixologik iqlim bola shaxsini boshqalar ta'sirida barkamol bulib shakllanishida qudratli vosita sifatida xizmat qila oladi. Psixologik iqlim ikkita bosh omil jamiyatning ijtimoiy psixologik holati va oiladagi mikroijtimoiy shart-sharoitlar ostida ro'yobga chiqadi.

Jamiyatning ijtimoiy-psixologik holati (sharoiti) insonga nisbatan muomala munosabat, qadriyat va qonunlarda belgilangan talablar, imkoniyatlar sharoitlarda o'z ifodasini topgan bo'lsa, oiladagi mikroijtimoiy sharoitlar oilada huquqiy status, mehnat taqsimoti, ekologik sharoit, qaysi yosh davri yoki jinsga ta'luqlilik bilan muomala, o'zaro munosabatlarning shakllanishida o'z ifodasini topadi.

Odatda psixologik iqlim deganda emotsional psixologik kayfiyat ham tushuniladi va u oila ishtirokchilarining qadr qimmat orentatsiyasi va axloqiy me'yorlarga va qiziqishlar asosida tarkib topgan o'zaro munosabatlarning hissiy emotsional xolatlarida ifodalanadi. Shu bois, psixologik iqlim quyidagi omillar ta'sirida shakllanadi:

- ijtimoiy-psixologik xususiyatlari majmui;
- ustun va barqaror psixologik kayfiyati;
- munosabatlarning tabiati;

O'zaro munosabatlar, muomala jarayonlari o'zaro ta'sirning 4 ko'rinishda amalga oshiriladi.

1. Ishontirish- bu ma'lum bir fikr mulohaza, tafakkur mahsulini mantiqiy asoslash jarayonidir. Ishontirish odatda shaxsning ratsional va emotsional tomonlarini qamrab oladi. Ishontirish jarayoni ochiq va latent holatlarda o'zaro bir fikrga kelishdagi iztiroblarda o'z ifodasini topadi.

2. Psixologik yuqtirish odatda psixik holatlarni (kayfiyat, iztirob, kechinma) idrok qilishda o'z ifodasini topadi.

3. Taqlid (identifikatsiya) psixologik yuqtirishning bir ko'rinishi sifatida boshqalarning psixik xususiyatlari, hatti harakatlari, qiliqlarini takrorlash orqali amalga oshiriladi.

4. Qarshiliksiz ta'sir bir insonning boshqasiga ta'sirining shunday ko'rinishidirki bunda ta'sirni qabul qiluvchi qarshiliksiz boshqaning so'zlarida ifodalangan fikri va irodasi ta'siri ostida bo'lish holatidir. Shunday qilib qarshiliksiz ta'sirning asosiy sharti bir tomondan ta'sir qiluvchining salohiyati va ikkinchi tomondan unga bo'lgan ishonuvchanlik hisoblanadi. Qarshiliksiz ta'sir insonlarning o'zaro bir-biriga ta'siri jarayoni bo'lib u bevosita, bilvosita va ixtiyorsiz ko'rinishlarda ro'y beradi.

Qarshiliksiz ta'sir boshqa kishi tomonidan va o'z-o'ziga nisbatan amalga oshirilishi mumkin. Qarshiliksiz ta'sir odatda qadriyatlar asosida “Ko'rsatma”(ustanovka)likka asoslanadi. Aytish joizki, bu ta'sir bolalarda ancha

kuchli bo‘ladi. Chunki bolalarda muomalaning identifikatsiya shakli ta'siri juda kuchli namoyon bo‘ladi.

Real muomala va insoniy munosabatlar asosan ishonch, taqlid, yuqtirish va qarshiliksiz ta'sirlar zahirida ro'yobga chiqadi. Aytish joizki, ularni ro'yobga chiqishida anglanmaganlik aktlari(ongsizlik, ongostlik) katta rol o'ynashi shubhasizdir. Insonning bir- biriga o'zaro ta'siri asosida ularning o'zaro bir -biriga bog'liqlik darajasi yotadi. Chunki o'zaro kontakt mobaynida insonda psixologik jarayonlar ro'y berishi to'xtamaydi va ular o'zi bilan o'zi alohida bo'lgandagidan farq qiladi.

Qadriyat yo'nalishlari tizimi hayotiy faoliyatning dasturi sifatida ishlaydi va ma'lum bir shaxs modelini amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Qadriyat shaxs va jamiyat, shaxs va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirning asosiy mexanizmlaridan biridir. Bu pozitsiya madaniyatga gumanistik-aksiologik deb ataladigan yondashuvda markaziy o'rin tutadi, unga ko'ra madaniyat gavdalangan qadriyatlar dunyosi sifatida tushuniladi;. Qadriyatlar - bu tarixiy tajribani o'zida mujassam etgan va bir davr, ma'lum bir jamiyat, butun insoniyat madaniyatining ma'nosini mujassamlashtirgan holda, odamlarning xatti-harakatlarining maqsadlari va me'yorlari haqidagi umumlashtirilgan g'oyalaridir. Bular har bir inson ongida mavjud bo'lgan belgilar bo'lib, ular bilan individual va ijtimoiy guruhlar o'z harakatlarini bog'laydi.

Aytish joizki, jamiyatning har bir a'zosining o'z taqdiri uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishini taqozo etgan ijtimoiy o'zgarishlar jamiyat ongida qadriyat yo'nalishlarining yangi tizimini bosqichma-bosqich qaror toptirishga olib keladi. Hayotga kirib kelayotgan, eski qadriyatlar bilan bog'liq bo'lmagan yoshlar erkin demokratik jamiyat qadriyatlarini to'liq anglay olmadilar. Qadriyat inson uchun u uchun ma'lum bir ahamiyatga ega bo'lgan hamma narsadir. Qadriyat yo'nalishlarining tuzilishi murakkab va heterojen bo'lib, ularning rivojlanish manbalarining ikki xilligi, ular bajaradigan funktsiyalarning xilma-xilligi ular asosidagi mezonlarda farq qiluvchi qiymat shakllanishi modellarining mavjudligini belgilaydi. Qiymatlarning funktsiyalari xilma-xildir. Ular: inson hayotidagi yo'l-yo'riq; ijtimoiy tartibni saqlash va ijtimoiy nazorat mexanizmi sifatida harakat qilish uchun zarur. Shaxsning qadriyat yo'nalishlari tizimini shakllantirish nuqtai nazaridan eng qizig'i bu kekxa o'smirlikdir. O'smirlik - bu xarakter va shaxsning shakllanishiga ta'sir qiluvchi qiymat yo'nalishlari tizimining jadal shakllanish davri. Qadriyat yo'nalishlarini shakllantirish jarayoni aloqaning sezilarli darajada kengayishi, xulq-atvor, qarashlar va ideallarning turli shakllari bilan to'qnashuvi bilan rag'batlantiriladi.

Har bir jamiyat o'ziga xos qadriyatlarga yo'naltirilgan tuzilishga ega bo'lib, u ushbu madaniyatning o'ziga xosligini aks ettiradi. Tug'ilgan paytdan boshlab bola asta-sekin o'zi haqida, uni o'rab turgan dunyo haqida, unga bo'lgan munosabati haqida tasavvur hosil qiladi. Bola kattalar tomonidan atrofdagi narsalar va hodisalarga baho beradi va shundan so'ng u allaqachon o'z taassurotlari bilan boshqariladi. Baholash me'yorlarini o'zlashtirish kattalar xatti-harakati bilan bog'liqlik asosida yuzaga keladi. Ongli ichki pozitsiyaning rivojlanishi hayot davomida sodir bo'ladi.

Har qanday jamiyatga mansub bo'lgan har bir shaxs, u yoki bu darajada, uni tavsiflovchi barcha qadriyatlar to'plamiga amal qiladi. Ammo shu bilan birga, har bir qadriyatning ahamiyati dastlab hayotda har bir inson uchun har xil pozitsiyani egallaydi. Shaxs dunyoni qadriyatlar prizmasi orqali idrok etadi; ijtimoiy dunyo tabiiy ravishda ijtimoiy qadriyatlar prizmasi orqali qaraladi. Shaxsiy qadriyat yo'nalishlari, boshqa ko'p qiymatli fanlararo ilmiy tushunchalar kabi, turli mualliflarning asarlarida turlicha talqin qilinadi.

Shaxsning ichki dunyosini tevarak-atrofdagi voqelik bilan bog'lab turgan qadriyat yo'nalishlari murakkab ko'p bosqichli ierarxik tizimni tashkil qiladi. Qadriyat yo'nalishlari tizimi shaxsiyat tuzilishining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uning motivatsion talab doirasi va shaxsiy ma'nolar tizimi o'rtasida chegara pozitsiyasini egallaydi. Shunga ko'ra, shaxsning qiymat yo'nalishlari ikki tomonlama funktsiyalarni bajaradi.

Qadriyat yo'nalishlari shaxs tuzilishining tarkibiy qismlaridan biri sifatida psixologiya, shaxsiyat psixologiyasi va ijtimoiy psixologiya doirasida o'rganiladi.

Shunday qilib, insonning qadriyat yo'nalishlari tizimi inson hayoti davomida o'zgarishsiz qolmaydi. Turli yosh bosqichlarida shaxsning qadriyat yo'nalishlari tizimining rivojlanishining ma'lum jihatlariga ma'lum bir chastota bilan birinchi o'ringa chiqadi

Diagnostika va shakllantirish dasturini ishlab chiqish

Tadqiqot ishini amaliy asoslash uchun bir qator diagnostika usullari tanlandi. Ular orasida:

- 1) Rokeach testi "Qiymat yo'nalishlari"
- 2) Shaxsning tashqi va ichki qadriyatlarini o'rganish metodologiyasi.
- 3) “S.S.Bubnov shaxsiyatining qadriyat yo‘nalishlarining real tuzilishini diagnostikasi” metodikasi.

Rokeach testi "Qiymat yo'nalishlari" (Leontiev D.A. 2002) qadriyatlar ro'yxatini tartiblashga asoslangan. Ko'pincha, bu usul boshqa usullardan olingan ma'lumotlar bilan qo'llab-quvvatlanadi. M. Rokeach qiymatlarni ikki sinfga ajratdi: terminal va instrumental. Respondentga alifbo tartibida qog'oz varaqlarida yoki

kartochkalarda qimmatbaho narsalarning ikkita ro'yxati (har biri 18 ta) taqdim etiladi. Ro'yxatlarda mavzu har bir qiymatga daraja raqamini beradi va kartalarni ahamiyati bo'yicha tartibga soladi. Birinchidan, terminallar to'plami, so'ngra instrumental to'plami taqdim etiladi

Qiymatlar. Quyidagi ko'rsatma berilgan: "Endi sizga 18 ta qimmatli kartalar to'plami taqdim etiladi. Sizning vazifangiz ularni hayotingizda sizni boshqaradigan printsiplar sifatida siz uchun muhimligi bo'yicha tartiblashdir. Jadvalni diqqat bilan o'rganing va siz uchun eng muhim bo'lgan qiymatni tanlab, uni birinchi o'ringa qo'ying. Keyin ikkinchi eng muhim qiymatni tanlang va uni birinchisining yoniga qo'ying. Keyin qolgan barcha qiymatlar bilan ham xuddi shunday qiling. Eng muhimi oxirgi bo'lib qoladi va 18-o'rinni egallaydi. Sekin, o'ylab ishlang. Yakuniy natija sizning haqiqiy pozitsiyangizni aks ettirishi kerak."

Qadriyatlar ierarxiasini tahlil qilib, ularni turli sabablarga ko'ra sub'ektlar bo'yicha mazmunli bloklarga guruhlashga e'tibor berish kerak. Masalan, "konkret" va "mavhum" qadriyatlar, kasbiy o'zini o'zi anglash va shaxsiy hayot qadriyatlari va boshqalar ajralib turadi. Instrumental qadriyatlarni axloqiy qadriyatlar, aloqa qadriyatlari, biznes qadriyatlariga guruhlash mumkin; individualistik va konformistik qadriyatlar, altruistik qadriyatlar; o'z-o'zini tasdiqlash qadriyatlari va boshqalarni qabul qilish qadriyatlari va boshqalar. . Bular shaxsning qiymat yo'nalishlari tizimini sub'ektiv tuzilishning barcha imkoniyatlaridan uzoqdir. Psixolog individual naqshni ushlashga harakat qilishi kerak. Agar bitta naqshni aniqlashning iloji bo'lmasa, respondentda qadriyatlar tizimi shakllanmagan yoki hatto javoblarning nosamimiyligi bor deb taxmin qilish mumkin.

Shaxsning tashqi va ichki qadriyatlarini o'rganish metodologiyasi

Uning mualliflari O.I.Motkov va T.A.Ognevadir. Metodologiyaning maqsadi - shaxsning qadriyat yo'nalishlarining ahamiyati va amalga oshirilishi darajasini, ularning individual va guruh tuzilishini, qarama-qarshilik va atribut atributini, ularni amalga oshirish sabablarini o'rganish. Metodika ikkita vazifadan iborat. Vazifa №1: unga quyidagi ko'rsatma beriladi: "Iltimos, hayotingizning mumkin bo'lgan qadriyatlarining ahamiyati va amalga oshirish darajasini 5 balli tizimda baholang: birinchi navbatda, siz qiymatning ahamiyatini baholaysiz (xarakteristikasi), uning oldiga raqam qo'yib, vergul bilan ajratilgan raqamni qo'ying, bu qiymatga mos keladi, lekin uni amalga oshirish nuqtai nazaridan. 1 - umuman ahamiyatli emas, 2 - amalda ahamiyatli emas, 3 - o'rtacha darajada muhim, 4 - muhim, 5 - juda muhim. 2-topshiriq, ushbu topshiriq bo'yicha quyidagi ko'rsatma berilgan: "Iltimos, o'z qadriyatlaringizni amalga oshirishga turli sabablarning ta'sir darajasini 5 balli tizimda baholang. 1- umuman ta'siri yo'q, 2- ta'siri yo'q, 3- o'rtacha darajada ta'sir qiladi, 4- ta'sir qiladi, lekin unchalik emas, 5- juda ta'sir qiladi. Birinchi vazifada

ishlov berishda tashqi va ichki qiymat yo'nalishlarining ahamiyati va amalga oshirish darajasi ko'rib chiqiladi. Ikkinchi vazifada barcha qiymat yo'nalishlarining ahamiyati va amalga oshirilishi o'rtasidagi farq ko'rib chiqiladi.

Butun metodologiyaga asoslanib, quyidagi xulosaga kelish mumkin: 8-sinf o'quvchilari, terminal qadriyatlarni taqsimlash, erkinlik, mustaqillik, shuningdek, sog'liq va o'z ehtiyojlarini qondirishga e'tibor berishadi, shu bilan o'smirlik davriga xos bo'lgan egosentrik pozitsiyani namoyon etadilar. kattalardan ajralib turish, o'z ehtiyojlarini aniq himoya qilish. Instrumental qadriyatlarni tarqatish orqali o'quvchilar ular uchun eng muhimi mustaqil, qat'iy harakat qilish, o'z fikr va qarashlarini jasorat bilan himoya qilish qobiliyati ekanligini aniq ko'rsatib beradi, lekin ayni paytda boshqalarga, xususan, qarindoshlarga nisbatan sezgir va g'amxo'rlik qiladi.

Yuqoridagilardan quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1. Diagnostika dasturini amalga oshirish jarayonida o'smirlar barcha qadriyatlar ichida birinchi o'ringa instrumental qadriyatlar, xususan mustaqillik, keyingi o'rinlarni esa terminal qadriyatlar egallashi aniqlandi; lekin shu bilan birga, birinchi o'rinlarni egallagan barcha qadriyatlarni amalga oshirish mumkin emas. Bundan tashqari, barcha usullarda ushbu yosh bosqichida o'smirlarning holati birinchi o'rinda turishi va barcha parametrlarni taqqoslashda muhimroq ekanligi aniqlandi.

2. Formativ eksperiment dasturi muvaffaqiyatli yakunlandi va taqdim etilgan ishga kiritildi. Usullarni amalga oshirish jarayonida guruhda dinamika bo'ldi, o'zgarishlar bo'ldi.

3. Nazorat bosqichidan so'ng quyidagi natijalar aniqlandi: o'smirlarning holati barcha tadqiqotlarda etakchi mezon bo'lib qoldi, biroq ayni paytda terminal va instrumental qiymatlar ko'rsatkichlari tenglashdi, ular deyarli teng bo'ldi.

4. Olingan natijalar va ma'lumotlarga asoslanib aytishimiz mumkinki, maqsad amalga oshirildi, vazifalar hal qilindi va amaliyotda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari.- Sankt-Peterburg, 2000 y.
2. Shevandrin N.I. Psixodiagnostika, korreksiya va shaxsni rivojlantirish: Qo'llanma universitet talabalari uchun - M.: VLADOS, 2001-512s.
3. Katta psixologik lug'at./tahrir B.G.Meshcheryakov, V.P. Zinchenko.- SPb., 2000 yil.
4. Sidorenko E.V. Psixologiyada matematik ishlov berish usullari.- Sankt-Peterburg: Rech.- 2007.- 350-yillar.
5. Slotina T.V. Shaxs psixologiyasi: o'quv qo'llanma - Sankt-Peterburg: Pyotr, 2008.

	PEDAGOGIK AMALIYOTDA IJTIMOIIY PEDAGOGIK TRENINGLARDAN FOYDALANISH O‘RNI	
103.	ESHMURODOVA MAVJUDA MURODILLAYEVNA 11- MFFCHO' I DU maktabi boshlang' ich ta' lim o' qituvchisi KICHIK MAKTAB O‘QUVCHILARINI KITOBXONLIKKA QIZIQTIRISH	450
104.	MO' MINOVA NAFISA TO' LQIN QIZI. 11- MFFCHO' I DU maktabi boshlang' ich ta' lim o' qituvchisi TA'LIM TARBIYA SIFATINI OSHIRUVCHI OMIL	454
105.	NABIYEV MUHRODBEK BOBIROVICH Turon Zarmed Universiteti o'qituvchisi YUSUF HAMADONIYNING KOMIL SHAXSNING TARKIB TOPISHIDAGI G'OYALARI VA UNI TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK TAHLILI	458
106.	VALIXANOV SAIDBEK SHOXOBIDINOVICH ADU Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası o'qituvchisi MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYALANUVCHILARINI AJDODLARIMIZ MEROSI ORQALI JISMONAN TARBIYALASH	462
107.	KOZIMOVA DILOROM ASHUROVNA Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi ALISHER NAVOIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI.	466
108.	VALIXANOVA NIGORA ABDUKAXXOROVNA p.f.f.d.(PhD), Andijon viloyati PYaMO'MM dotsenti v.b. SHARQ ALLOMALARI FIKRLARI ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM PEDAGOGIKASINI RIVOJLANTIRISH	470
109.	KOZIMOVA DILOROM ASHUROVNA Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi AJDODLARIMIZ BIRINCHI RENESSANS DAVRI ULAMOLARNING BETAKROR MEROSI	475
110.	RO'ZIYEVA NASIBA TOLIBOVNA Buxoro viloyat Vobkent tuman 37-maktab tarix fani o'qituvchisi O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA AJDODLAR MEROSINING MUHIM JIHATLARI	479
111.	BOZOROVA LOBAR SHAROPOVNA Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Tillarni o'qitish metodikasi" kafedrası o'qituvchisi ALISHER NAVOIYNING "LISON UT-TAYR" ASARI – BUYUK MA'NAVIY SARCHASHMA	483
112.	MUSINOVA NOZIRA MIRZADJANOVNA Buxoro davlat universiteti(BDU) COFJOM OILJA-COFJOM XAËT	486
113.	MUSINOVA NOZIRA MIRZADJANOVNA Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi OILADA BOLA SHAXSIDA MILLIY QADRIYATLAR SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	491

